

ABDULLA ORIPOV ASARLARI LINGVOPOETIKASI

Kalonova Nodira

Namangan viloyati Chust tumani umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abdulla Oripov she'rlarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida fikr yuritilib, lingvopoetik jihatdan qisqacha tahlil qilingan.

***Kalit so'zlari:** lingvopoetika, leksik poetika, fanetik poetika, antonim, metafora, metonimiya.*

LINGVOPOETICS OF ABDULLA ORIPOV'S WORKS

ABSTRACT

This article discusses the lexical and grammatical features of Abdulla Oripov's poems and gives a brief lingvopoetic analysis.

***Keywords:** lingvopoetics, lexical poetics, phonetic poetics, antonyms, metaphors, metonymy.*

KIRISH

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi har bir adabiy davrning muhim ilmiy-nazariy masalalari, muammolari bilan boshqa tilshunoslik sohalaridan ajralib turadi va bu masalalar uning xarakterli tomonidir. Xususan, badiiy ijod namunalarimiz, mukammal adabiy merosimiz lingvopoetik xususiyatlarini to'laqonli tahlil qilish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab badiiy matnning til xususiyatlari o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasida lingvopoetika deb ataluvchi tilshunoslik tarmog'i shakllanib, istiqbolli bir yo'nalishga aylanib ulgurdi. Ma'lumki, nutqiy faoliyatning o'ziga xos noyob turi- bu badiiy adabiyotdir. Uning til birliklari tadbiq etishda lingvopoetik tahlil muhim ahamiyatga ega. Lingvopoetika tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishga qarab fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi qismlarga bo'linadi.¹

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lingvopoetikaning poetik fonetika yo'nalishi yozuvchi tomonidan tanlab olingan uslubni yaratishda ma'lum tovushning o'ziga xos tarzda o'zgarishi, orttirilishi va shunga o'xshash holatlarning yuzaga chiqishi yordamida hosil bo'ladi.

¹.Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.-B.152

2.. Dilmurod Quronov.Adabiyotshunoslikka kirish.-Toshkent 2004. 129-bet

Buning yorqin misolini Abdulla Oripov ijodi ko'rishimiz mumkin:

1. Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman.
2. Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.
3. Bir kun savol berdi yoshgina o'g'lon:
— Nechun Allohim deb yig'laysiz nolon.

Poetik leksikologiya yo'nalishining tadqiqot ko'lami juda keng qamrovlidir. U o'z doirasida sinonim, omonim, antonim so'zlarni, ma'no ko'chishlarining barcha jabhalarini (metafora, metonimiya, sindekdoxa, vazifadoshlik, kinoya), chegaralangan leksikalarni (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...) tahlil qiladi.

Voqelikdagi narsa-hodisalar orasidagi bizga ko'rinmagan, biroq san'atkorona o'tkir nigoh bilan ilg'angan o'xshashlik, aloqadorlik asosidagi ko'chimlar o'quvchini hayratga soladi, unga zavq bag'ishlaydi. Badiiy asarda eng ko'p qo'llanuvchi ko'chim turlaridan biri metaforadir. Metafora usulidagi ma'no ko'chishida narsa-hodisalar orasidagi o'xshashlikka asoslaniladi. Tabiatan, metaforani yashirin o'xshatish deb atash mumkin².

Ma'rifatparvar shoirimiz ijodida betakror yashirin o'xshatishlar (metaforalar) bisyordir:

1. Insof-u ishonch ham **shirin** so'z bari...
2. Ne-ne balolarga goho **tutildim**,
Ko'pidan, insholloh, endi qutildim.
3. Ammo bir kasofat **qiynaydi** hamon,
Unga bas **kelolur** na vaqt, na zamon.

Ma'no ko'chishining keng tarqalgan turlaridan yana biri metonimiyadir. Metonimiya usulida ma'no ko'chganida narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asos qilib olinadi. Bu aloqadorlik turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'lib, bunda narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy; vaqt; harakat bilan u amalga oshiriladigan vosita; narsa va uning egasi, yaratuvchisi; narsa va u yasalgan modda kabi aloqalarga asoslaniladi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda metonimiya metaforaga nisbatan

kamroq uchraydi, o'zining estetik funksiyaliligi jihatidan ham u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo'lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo'llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo'nda va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi.

1. Elchilarga o'xshab turfa zamondan,
Shaloq aravalar , “**mers**”lar o'tadi.
2. **Stadion** guvlaydi,
Odam liq to'la.
3. Hojiakbar, sen ajoyib adibsan, ko'rkam,
Maftun etding bizni nurli qalaming bilan.
Biroq nega qo'rqitasan, muharrir ukam,
“**Qalb ko'zi** ”-yu mudhish “**Sirli olam** ”ing bilan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Qahramoni,davlatimiz madhiyasi muallifi, zabardast shoir Abdulla Oripov ijodini tahlil qilish jarayonida ijod tilining betakrorligi,lingvopoetik tadqiq asoslarining barcha yo'nalishlarini o'zida ko'rishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Abdulla Oripov.Shoir yuragi.- Toshkent :Ma'naviyat 2003
2. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunosliknazariyasi.-Toshkent: Fan.2008.- B.152
3. Dilmurod Quronov.Adabiyotshunoslikka kirish.- Toshkent: ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASHRIYOTI 2004
4. Mustafayev, U. U. (2022). OLIY TA'LIMDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 614-621.
5. <https://uz.m.wikipedia.org>